

**SPORT MAVZUSIGA OID KO'RSATUVLARNI TAYYORLASH VA EFIRGA  
UZATISH MEXANIZMI.  
(SPORT TELEKANALI MISOLIDA)**

**Dilyafroz Jumamuratova**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Qoraqalpoq filologiyasi va Jurnalistika fakulteti 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12810110>

**Annotasiya.** Ushbu ilmiy maqolamizda biz sport mavzusiga oid yangilik va ko'rsatuvlarni tayyorlash va efirga uzatish mexanizmini Sport telekanali va ushbu telekanalda faoliyat yuritib kelayotgan ko'rsatuvlar tahlili misolida o'rganamiz.

**Kalit so'zlar:** Sport tv, "Sport onlayn", "Match bot", "Sog'lomjon-polvonjon", "G'alabaga bir qadam", "Bo'lajak chempion", "Harakatda bo'l", "Superliga olami." Hudud vaqti".

**A MECHANISM FOR PREPARING AND BROADCASTING SPORTS PROGRAMS.  
(IN THE EXAMPLE OF SPORTS TV CHANNEL)**

**Abstract.** In this scientific article, we will study the mechanism of preparation and broadcasting of sports news and programs on the example of the Sport TV channel and the analysis of the programs currently operating on this channel.

**Keywords:** Sport tv, "Sport online", "Match bot", "Healthy wrestler", "One step to victory", "Future champion", "Be on the move", "World of Super League." Zone Time".

**МЕХАНИЗМ ПОДГОТОВКИ И ТРАНСЛЯЦИИ СПОРТИВНЫХ ПРОГРАММ.  
(НА ПРИМЕРЕ СПОРТИВНОГО ТЕЛЕКАНАЛА)**

**Аннотация.** В данной научной статье мы изучаем механизм подготовки и выхода в эфир новостей и программ на тему спорта на примере анализа программ, действующих в настоящее время на телеканале «Спорт».

**Ключевые слова:** Спорт ТВ, «Спорт онлайн», «Матч-бот», «Здоровый борец», «Один шаг до победы», «Будущий чемпион», «Будь в движении», «Мир Суперлиги». Зонное время».

Sport olamida sodir bo'layotgan eng muhim voqealarni izlash, tahlil qilish va efirga uzatish jarayonlari jurnalist faoliyatida o'ziga xos malaka va mahoratni talab etadi. Bunda sport mavzusini yoritish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarni yoritishdan tubdan farq qiladi. Sababi sport mavzusini keng ommaga taqdim etishda muxbir jurnalistika janrlari, tili va uslubini bilishi bilan birga, tahlil qilayotgan sport turi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Odatda sportga ixtisoslashgan telekanallar muxbirlari u yoki bu sport turini chuqur o'rgangan, terma jamoa yetakchi sportchilari va ularning bosh murabbiylari bilan doimiy muloqatda bo'lib turadi.

Sportchilarning erishgan yutuqlari, qaysi musobaqa yoki olimpiya o'yinlarida ishtirok etgani va ularning kelajakdagi rejalari haqida ma'lumot to'playdi. Sport o'yinlari paytida voqea va hodisalar soniyalar ichida o'zgarishi mumkin. Shu sababli ham sport musobaqalarida ishtirokchi atletlar ro'yxati o'zgarmaydi, lekin natijalar kutilmagan bo'ladi. Masalan, kimdir finalga chiqadi, boshqasi esa jarohat olib, o'yin maydonini tark etadi.

Mana shunday vaziyatlarda jurnalist o'z respondentini suhbatga torta olishi va tayyorlagan reportajini tezkor ravishda efirga uzatishi kerak. Sport sohasi boshqa sohalarga qaraganda o'zining

jonliligi bilan ajralib turadi. Sababi ko‘plab olimpiya va terma jamoa o‘yinlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladi. Sharhlovchi jurnalist esa, o‘yin jarayonlarini bevosita sharhlashga harakat qiladi.

Ayniqsa sport o‘yinlari haqida batafsil ma’lumotlarni auditoriyaga jonli ravishda yetkazish jurnalistdan ancha bilim va ko‘nikmani talab etadi. Sport mavzusiga oid eng so‘nggi yangiliklarni tezkor tarzda keng ommaga taqdim etishda yurtimizda faoliyat yuritib kelayotgan sportga ixtisoslashgan telekanallar yetakchilik qilib kelmoqda. Shu o‘rinda "Sport teleradiokanali" ning o‘rni beqiyosdir. Sport telekanali "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi Ommaviy sport targ‘ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga binoan tashkil etildi. Sport teleradiokanalining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga, mamlakatimizda va chet ellardagi muhim sport tadbirlarini, respublika sportchilarining yutuqlarini yoritishga yo‘naltirilgan teleko‘rsatuvlarni tayyorlash;

2. Sog‘lom turmush tarzini keng ommalashtirish, bolalar sporti va oilaviy sportni ommaviy tadbiq etish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini qayta tiklashga qaratilgan tele dasturlarni tayyorlash;

3. Xorijiy teleradio kompaniyalarning eng yaxshi dasturlarini, shu jumladan, jahon sporti, olimpiya harakati va xalqaro sport tashkilotlari faoliyatiga bag‘ishlangan dasturlarni olib ko‘rsatish;

4. Xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya qilishni tashkil etish.

Telekanal tashkil etilgan dastlabki yillarida: **"Поколения XXI", " Start", "Sport onlayn", "Sog‘lomjon-polvonjon", "Match bot", "Texnosport", "Sport yangiliklari"** kabi ko‘rsatuvlar efirga berilgan. Bu ko‘rsatuvlar tarkibidagi **"Sog‘lomjon-polvonjon"** ko‘rsatuvi bolalar hayoti va ular orasida sog‘lom turmush tarzini tahlil qilishni maqsad qilgan bo‘lsa, "Sport onlayn" ko‘rsatuvi Jahon chempionati va sport musobaqalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tamosha qilish imkonini beradi. Sport olamida yuz berayotgan eng so‘nggi yangiliklar sharhi bilan o‘zbek tilida "Sport yangiliklari" va rus tilida efirga uzatiladigan "Новости спорта" teledasturlari orqali yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Ushbu telekanalning **2024-yil 17-iyul** kuni efirga berilgan ko‘rsatuvlar tarkibi quyidagilardan iborat: **"Harakatda bo‘l", "Tanlov", "Bo‘ljak chempion", "Superliga olami", "G‘alabaga bir qadam", "Hudud vaqti", "Kibersport", "Sport yangiliklari "** va **"Bizning kurash"**.

Yosh avlodning sportga bo‘lgan qiziqishlarini keng ommaga taqdim etish va kichik yoshdagi bolalar yutuqlarini tomoshabinlar e‘tiboriga havola etish va shu orqali sport bilan shug‘ullanuvchilar safini kengaytirishni: " Bo‘ljak chempion", "Harakatda bo‘l" ko‘rsatuvlari o‘zida mujassam etgan.

"G‘alabaga bir qadam" ko‘rsatuvining 2024-yil 2-aprel kuni efirga berilgan sonida "Bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish" sport turi bo‘yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, 8 karra Jahon chempioni, 3 karra Osiyo chempioni, jahon rekordchisi Islom Hokimjanov haqida so‘z etiladi.

Ko‘rsatuv boshlovchisi: Mirzufar Sharipov.

Ko'rsatuv boshida jurnalist o'z suhbatdoshiga bu sport turiga bo'lgan qiziqishi va unga qo'ygan ilk qadami qachon boshlanganligi haqida savol beradi. Keyin esa bu sport turiga qanday talablar qo'yilishi haqida batafsil tarzda o'z respondentiga yuzlanadi.

"G'alabaga qo'ygan ilk qadamim yaqinlarimning va murabbiylarimning menga bildirgan ishonchi va qo'llab-quvvatlashi orqali boshlandi", deydi ko'rsatuv qahramoni Islom Hokimjanov.

Jurnalist Mirzufar Sharipov efirga tayyorlagan ushbu ko'rsatuvi davomida respondentiga juda yaxshi va mazmunli savollari bilan murojaat qiladi va shu orqali auditoriyani oziga jalb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bo'lib o'tadigan futbol chempionati va unda O'zbekiston Futbol terma jamoa sportchilarining ishtiroki, o'yin maydonida yuzaga kelgan vaziyatlar haqida "Futbol olami" ko'rsatuvi so'z etadi. Ko'rsatuv boshlovchisi: Abror Imomxo'jayev.

Ko'rsatuvning 2024-yil 18-iyun kuni efirga berilgan sonida Superliganing 11-turi boshlanishidan oldin 6-turning Dinamo Olimpik ishtirokida qoldirilgan uchrashuvi haqida so'z boradi.

Umumlashtirib aytganda Sport mavzusi va uni ommaviy axborot vositalarida aks ettirish va keng ommaga taqdim etish har bir sport jurnalistidan o'ziga xos malaka va tajribani talab etadi.

Sababi har bir sport turining o'ziga xos xususiyatlari bor. U haqida batafsil ma'lumot to'plash, tahlil qilish va efirga uzatish yurtimizda sport jurnalistikasi va sport sohasining yanada yetilishib rivojlanishiga asos bo'ladi.

#### **REFERENCES**

1. N.Qosimova, Q.Xidirov, A.Safarov, X.Saidov, Yu.Ortiqova, M.Isomiddinov, N.Dosimbetova, M.Abduraxmanova, M.Saidova. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild. Toshkent."O'zbekiston".2019.
2. Ro'ziev.F, Jo'rayeva.X Telejurnalistga tavsiyalar.T."Sharq" 2013.
3. 3.Nurmatov A, To'xtaeva N. SHarhlash jurnalistikasi.T. "Bayaz".2013.
4. Do'stmuhammad.X. Axborot-mojiza joziba falsafa. "Yangi asr avlodi". 2013.
5. Sport Tv. "G'alabaga bir qadam" ko'rsatuvi.
6. Sport Tv. "Superliga olami" ko'rsatuvi.
7. Sport Tv. "Sog'lomjon-polvonjon" ko'rsatuvi.